

GLOBALLASHUV JARAYONINING YOSHLARGA TA’SIRI

Mo‘minov Muxriddin Mirzohid o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Siyosatshunoslik 1-kurs talabasi

+998914977981

muxriddinmuminov10@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada globallashuv jarayonining bugungi kunda yoshlar ma'naviyati va ongiga ko'rsatayotgan bevosita va bilvosita ta'sirlari muhokama qilinadi. Shuningdek, globallashuv jarayonida madaniy identitetning zaiflashuvi, qadriyatlar transformatsiyasi va ommaviy madaniyatning ustunlashuvi kabilar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar:

Globallashuv, yoshlar onggi, madaniy identitet, yoshlar madaniyati, ijtimoiy tarmoq, axborot erkinligi

Аннотация:

В данной статье рассматриваются прямые и косвенные воздействия процесса глобализации на духовность и сознание молодежи в современном мире. Также анализируются такие проблемы, как ослабление культурной идентичности, трансформация ценностей и преобладание массовой культуры в условиях глобализации.

Ключевые слова:

глобализация, сознание молодежи, культурная идентичность, молодежная культура, социальные сети, свобода информации.

Abstract:

This article examines the direct and indirect impacts of globalization on the spirituality and consciousness of youth in the modern world. It also analyzes such issues as the weakening of cultural identity, the transformation of values, and the dominance of mass culture in the context of globalization.

Keywords:

Globalization, youth consciousness, cultural identity, youth culture, social networks, freedom of information.

Kirish

Bugungi kunda globallashuv jarayoni dunyo miqyosida barcha sohalarga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli muhit kengayishi natijasida yoshlar hayoti, dunyoqarashi va qadriyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Globallashuv jarayoni orqali turli madaniyat va g'oyalar o'zaro aralashib, bu esa yoshlarning madaniy identiteti shakllanishiga bevosita ta'sir qilmoqda.

Bir tomondan, globallashuv yoshlar uchun keng imkoniyatlar - bilim olish, tajriba almashish va global axborotdan foydalanish imkonini yaratmoqda. Boshqa tomondan esa, u milliy qadriyatlarning zaiflashuvi, ommaviy madaniyatning ustunlashuvi va ma'naviy bo'shliqlarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Shu sababli, globallashuvning yoshlar ongiga ijobiy va salbiy ta'sirlarini chuqur o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu masala yuzasidan globallashuv aspektlarini o'rgangan Habibuli Haka Hongira shunday deydi: "Globallashuv g'alabaga, yo'qotishlarga olib keladigan jarayondir. Ba'zilar globallashuvni o'z yo'lidagi hamma narsani yo'q qiladigan po'yezd sifatida ko'rsalar, boshqalari uni iqtisodiy o'sish va modernizatsiyaga olib keladigan foyda manbai deb bilishadi"²⁹.

Asosiy qism

Globalizatsiya - bu rivojlanayotgan jahon iqtisodiyoti, millat va elat vakillari orasidagi mahsulot va xizmatlarning transchegaraviy savdosi, texnologiya va axbarot almashinuvi hamda, xalqaro savdo va investitsiyalar oqimini tasvirlovchi atama hisoblanadi. Globallashuv jarayoni bugungi kunda yoshlar hayotiga bevosita va bilvosita ta'sir qilmoqda va buning jamiyatimiz kelajagida tutgan o'rni beqiyosdir. Chunki jamiyat hayoti o'z-o'zidan yosh avlodga bog'liqligi hech kimga sir emas. Bu jarayonning ta'lim sohasida, mehnat bozorida va integratsiya masalasida yaratayotga ko'plab ijobiy imkoniyatlariga qaramay u muayyan xavflarni ham olib keladi. Globallashuv orqali yoshlarning dunyoqarashi kengaymoqda, chunki ular turli xalqlarning urf-odatlarini, madaniyatini hamda an'analari bilan yaqindan tanishmoqda. Boshqa davlatlarning ilm-fan, g'oyalar hamda texnologiyalarini globallashuv sharoiti orqali o'rganmoqda. Bu jarayon, ayniqsa yoshlarni global muammolarga - atrof-muhit muhofazasi, inson huquqlari, ilmiy taraqqiyot kabi umujahon masalalarga jalb qilish imkonini yaratmoqda³⁰. Globallashuv, asosan, axborot oqimining kengayishi bilan tavsiflanadi. Ta'lim tizimi va zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti, shuningdek, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish yoshlarning bilim salohiyatini oshirib, ularni bugungi jamiyat ehtiyojlariga mos, raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantirishga yordam beradi. Natijada, bu jarayon orqali egallangan bilim va ko'nikmalar yoshlar ongiga ijobiy

²⁹ <https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0038/6.9%20.pdf>

³⁰ A.Abdurahmonov. "Globallashuv falsafasi"/Toshkent: O'zbekiston / 2015

ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, bu kabi jarayonlar axborot almashinuvini tezlashtiradi. Axborot va texnologiyalar, global madaniy xilma-xilligi va global tarmoqlar o'rtasida o'zlashtirilgan munosabatlarni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Bu texnologiyalar dunyodagi insonlar va tashkilotlar o'rtasidagi uzluksiz aloqalarni ta'minlash va globallikni kuchaytirish uchun muhim vositadir. Globallashuvning kelgusi yonalishi xalqaro hamkorlikni o'z ichiga oladi. Xalqaro hamkorlik, mamlakatlar, ichki va tashqi tashkilotlar, shaxsiy tadbirkorlar va milliy tarmoqlar orasidagi ishonchli, barqaror aloqani kuchaytirish uchun harakat qilishni talab etadi. Bu hamkorlik, dunyo bo'ylab muammolarga qarshi kurashishni talab etadi. Xalqaro hamkorlik, dunyo bo'ylab global muammolarga qarshi kurashish, inson huquqlarini tarqatish, barqaror ishtirok va taraqqiyotni ta'minlash uchun zarurdir. Bu hamkorlik, mamlakatlarni bir-birlari bilan xizmatlarni almashish, resurslarni birlashtirish va global muammolarni hal etishga qaratilgan³¹. Global farovonlik, barcha mamlakatlarda barqarorlikka ko'maklashadi, global islohotlar va siyosiy tuzumlar muammosi va boshqalar bilan harakatni rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, global qarorlar dunyodagi muammolarni hal etishga yordam beradi va global xususiyatlarni kuchaytirishga yo'llar ochiladi. Global farovonlik, insonning dunyodagi muxim muammolarini hal etishda katta hissa qo'shadi. Bu masalaga faqat bir tarafdin qarab bo'lmazligi aniq. Chunki bu kabi global tarzda muhokamalarga sabab bo'ladigan mavzular albatta o'zining ijobiy jihatlarga ega bo'lgani kabi bir qator baxs munozaralarga sabab bo'la oladigan salbiy jihatlarga ham ega bo'ladi. Masalan, globallashuv o'zi bilan yetaklab keladigan eng katta tahdid – milliy o'zlikni yoqotish xavfidir. G'arb madaniyatining haddan tashqari targ'ib etilishi natijasida ayrim yoshlar o'z milliy qadriyatlariga, urf-odatlariga befarq bo'lib qolmoqda. Albatta bu e'tiborga olinishi kerak bo'lgan eng muhim jihatlardan biri deb ayta olamiz, chunki har bir davlat o'zining tili, milliyligi va o'z urf odatiga ega bo'lganligi uchun bir davlat bo'lib shakillana oladi. Agar yoshlar o'zligini unitib globallashuvning yomon oqimlari tomon tobora harakatlanaversa bu oxir-oqibat shu millatning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Modaga ergashish, xorijiy filmlar va musiqa ta'sirida o'zining tiliga, kiyinishiga, hatto dunyoqarashiga ham begonalashish holatlari uchramoqda. Globallashuvning salbiy jihatlarni xarakterlovchi asosiy omil sifatida "ommaviy madaniyat" elementlarining keng tarqalib borayotganini misol keltirish mumkin. Ba'zi respublikamizning olimlari nuqtayi nazariga ko'ra, globallashuv sharoitida milliy g'oyaga zid, ma'naviy qadriyatlarimizga putur yetkazadigan tashqi ta'sirlar asosan "ommaviy madaniyat"ni tarqatishga bo'lgan intilishlar hosilasidir. Globallashuv tezkor va shiddatli tashqi ta'sirlar davri bo'lishi bilan birga, muntazam ravishda tizimli olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy,

³¹ <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/2404/2239>

profilaktika va targ‘ibot-tashviqot jarayonini ifoda etadi. Shu kabi mavzularni qamrab olgan 2017-yil 19-sentyabr kuni o‘tkazilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston nomidan BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini ishlab chiqish taklifini ilgari surdi. Bu xalqaro tashabbusning zamirida globallasuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan bir qator tashabbuslar ommaga taqdim etildi³². Ya’ni globallasuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ommalashayotgan bu davrda shu kabi masalalarning yoshlar hayotiga ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirlarini oldini olish butun BMT ga a’zo mamlakatlar qolaversa butun dunyo hamjamiyatining bosh vazifalaridan biriga aylanishi kerakligi ta’kidlab o‘tildi. Globallasuv jarayonining yana bir o‘ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar. Bu haqda gapirilganda, men ilgari bildirilgan ba’zi fikrlarni takrorlash o‘rinli deb o‘ylayman. Eng achinarlisi shundaki, bu yovuz kimsalar hali ongi shakllanib ulgirmagan, tajribasiz va g‘o‘r yoshlarni o‘z tuzog‘iga ilintirib, bosh-ko‘zini aylantirib ulardan yomon maqsadlari yo‘lida foydalanishmoqda. Bu esa jahon insonparvarlik g‘oyalarining o‘bro‘sizlantirilishiga sabab bo‘lmoqda. Shunga e’tibor berish kerakki, bir millatning ongini egallash uchun, eng avvalo, sog‘lom aqilni zaiflashtirish talab etiladi, bu esa hozirgi globallasuv va axborot-kommunikatsiyalari takomillashgan bir davrda afsuski ancha osonlashib bormoqda. Bu jarayon tufayli vujudga kelgan ma’naviy tahdid va ommaviy ma’naviy qarashlar milliy qashshoqlanishiga va jamiyatning istiqbolli taraqqiyoti yo‘lida katta to‘siqni yuzaga keltiradi. Bizga tarixdan ma’lumki har qanday millatning, xalqning yoki ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy inqirozning yo‘qlikka mahkumligi ko‘pincha milliy-ma’naviy qashshoqlanish va yemirilish ta’sirida sodir bo‘lgan. O‘tmishda biror mamlakat qurolli kuch bilan bo‘ysundirilgandan so‘ng xalqining milliy birligi va ma’naviyatini, madaniyatini, milliy qadriyatlarini hamda yozuvini yo‘q qilishga asosiy diqqat e’tiborini qaratishgan bo‘lsa, hozirgi globallasuv jarayonida esa xalqlarni bo‘ysundirish va hukmronligini qo‘lga olish uchun ommaviy axborot vositalari orqali g‘arblashgan ma’naviy qarashlarning targ‘ib qilinayotganini o‘zi kifoya bo‘lmoqda. Ular globallasuv niqobi ostida G‘arbnng ma’naviy yengil-yelpi va xalqlar ongu-shuurini, tor doiradagi qarashlarini ilg‘or va hammabop deb ko‘rsatib insonlarning ongi va qalbida, dunyoqarashi va fikrlashida, e’tiqod va tafakkurida milliy mustaqillikka bo‘lgan fidoyilikni yo‘qotishni maqsad qilib olgan eng beozor usullaridir.

³² <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-prezidenti-tashabbusi--globallasuv-davvrining-dolzarb-talabi>

Bugungi kunda shu muammoga e'tibor berish lozimki, "Mafkuraviy tahdidlarning bosh maqsadi mustaqil davlat fuqarolarini o'z qadriyatlaridan begonalashtirib, turli yaltiroq "g'iloqlar"ga o'ralgan begona mafkuraviy idealarni ularning ongiga singdirishdan iboratdir".

Savdo va kapital oqimlarini erkinlashtirish bilan tavsiflangan globallashtirish xalqaro raqobatni kuchaytirayotganiga ham e'tibor qaratiladi. Raqobatda g'alaba qozonish uchun biznes vakillari o'z shtatlaridan mehnat qonunlarini soddalashtirishni talab qila boshlaydilar, ular o'ta qattiq mehnat qonunlari globallashtirish talablariga javob bermaydi, bu esa moslashuvchan mehnat bozorini talab qiladi. Bu esa "pastki sari poyga"ga, ya'ni rivojlangan mamlakatlarda ishchilar huquqlarining kamroq himoyalanganligiga olib keladi³³. Umuman olganda globallashtirish jarayoni shu kabi salbiy jihatlarni o'zi bilan olib kelishini ham inobatga olgan holda barcha mamlakatlar kerakli cheklolarni o'rnatasa ular o'z yurtlarini shu singari negativ yo'nalishlaridan qisman bo'lsada saqlab qolgan bo'ladi.

Tahliliy xulosa va takliflar

Axborot qabul qilish va sintezlash ma'daniyatini shakillantirish. Butun Respublika bo'ylab aholi axborot ma'daniyatini yuksaltirish, ijtimoiy tarmoqlarda joylanayotgan fake habarlarga ishonmaslikni targ'ib qilish zarur.

Milliy identitetni rivojlantirish. Ta'limda, oilada, ommaviy axborot vositalarida milliy o'zlikni saqlash, milliy urf odan va tilni saqlab qolishga qaratilgan targ'ibot va tashviqot ishlarini yuksak darajada olib borish kerak.

Yoshlar tarbiyasiga jiddiy e'tibor berish. Yoshlarni Vatanparvarlik ruxida ulg'aytirishga, ularda ona Vatan va milliy o'zlikni saqlashga bo'lgan iminitetni shakillantirish, ota-ona va oilaga nisbatan hurmatni saqlash, ezgulik va halollik tamoyillarini anglay olishi uchun zamir hozirlash maqsadga muvofiq.

Raqamli savadxonlikni oshirish. Internetdan xavfsiz foydalanish, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlay olishlari uchun ularni kiber xavfsizlik bo'yicha savodini chiqarish kerak.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, globallashtirish bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida yoshlar hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. U ko'rsatayotgan ta'sirlarni inkor etib bo'lmaydi. Lekin salbiy ta'sirlari ko'p ekan deb bu kabi zarur bo'lgan va butun dunyoga kirib borayotgan g'oyalarni baykot qila olmaymiz. Chunki tanganing ikki tarafi bo'lganidek bu

³³ Edvard Vebstra ma'ruzasi, Рабочее движение после глобализации: есть ли у него будущее, 23.11.2014, qaraldi: 15.04.2026

go`yalarning ham o`ziga yarasha ijobiy taraflari ham bor. Bularni inobatga olgan holda va zarur extiyot choralarni ko`rish orqali salbiy oqibatlarini kamaytirgan holda, ko`proq pozitiv jihatlarni mamlakatlarda joriy etish maqsadga muvofiq bo`ladi. Chunki globallashuv jarayoni hozirgi zamon talablariga mos bo`lgan texnika va texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari va fuqarolarning dunyo qarashlari rivojlanib bir biriga integratsiyalashuviga olib kelmoqda. Shularni inobatga olgan holda bu sodir bo`layotgan g`oyalarni butunlay ijobiy yohud salbiy deyish mumkin emas.

Foydalanilgan manbalar

1. Meyliyev Ulmas Farmonovich. (2024, May 24). GLOBALLASHUVNING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI - <https://doi.org/10.5281/zenodo.11278472>
2. A.Abdurahmonov. “Globallashuv falsafasi” /Toshkent: O`zbekiston / 2015
3. Sulaymonov. I, Abrorqulova. G, Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari, Jahon ilmiy-metodik jurnali, 34-son, 2-to`plam, Mart-2024, 127-130-bet - <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/2404/2239>
4. O`zbekiston Prezidenti tashabbusi — globallashuv davrining dolzarb talabi- <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-prezidenti-tashabbusi--globallashuv-davrining-dolzarb-talabi>
5. Edvard Vebstra ma`ruzasi, Рабочее движение после глобализации: есть ли у него будущее, 23.11.2014, qaraldi: 15.04.2026